

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADALIYEVA MAXLIYO SHERALI QIZI

**ZULFIYA LIRIKASIDA INTERTEKSTUAL XOTIRA VA UNING POETIK
IFODASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Axmadaliyeva Maxliyo Sherali qizi

Zulfiya lirikasida intertekstual xotira va uning poetik ifodasi 3

Ахмадалиева Махлиё Шерали кизи

Интертекстуальная память в лирике Зульфийи и её поэтически
выражение 25

Akhmadaliyeva Makhliyo Sherali qizi

Intertextual memory in Zulfiya's lyric poetry and its poetic expression 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADALIYEVA MAXLIYO SHERALI QIZI

**ZULFIYA LIRIKASIDA INTERTEKSTUAL XOTIRA VA UNING POETIK
IFODASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5504 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.jdpu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Soatova Nodira Isomitdinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Umurova Go‘zal Xotamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jdpi_info@umail.uz) Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

U.A.Jumanazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.fanlari doktori,
professor

N.N.Xadjimusayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, filol.fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

U.Qosimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi filol.fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida lirika tarixiy-madaniy jarayonlar, o'zgarib borayotgan estetik paradigmalar hamda badiiy tafakkurning ichki qonuniyatlari ta'sirida shakllanadigan va rivojlanadigan dinamik tizim sifatida talqin qilinadi. Janr shakllarining evolyutsiyasi, kompozitsion modellar yangilanishi, obrazlar tuzilmasining o'zgarishi, poetik matnning semantik ufqlari kengayib borayotgani lirik diskursni yanada chuqur o'rganish zaruratini kuchaytirmoqda. Tadqiqotchilarning obrazlar tipologiyasi, poetik tafakkur evolyutsiyasi hamda lirik tajribani qiyosiy tahlil qilishga bo'lgan qiziqishi, avvalo, zamonaviy she'riyatda ichki kechinma bilan badiiy g'oya uyg'unligini izlash jarayoni tobora yaqqol namoyon bo'layotgani bilan izohlanadi.

Dunyo adabiyotida so'nggi o'n yilliklarda insonning ichki "men"i, ruhiy impulslari, arxetipik holatlari va hissiy ong dinamikasini ifodalashga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortdi. Lirik matnning asosiy unsurlari bo'lgan lirik subyekt va lirik obyekt tobora murakkab ma'naviy tajriba tashuvchisi va shaxsning o'zini anglash jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Hissiy impuls va obrazli struktura birligi zamonaviy poeziyada yangi estetik modellarni shakllantiruvchi muhim omilga aylanib, XX–XXI asr lirikasi janr, obraz va ramziylik sohalaridagi yangilanishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Natijada, adabiyotshunoslik oldida ushbu jarayonlarni tahlil qilish, intertekstual bog'lanish mexanizmlarini ochib berish va poetik tafakkurda madaniy xotiraning o'rnini aniqlash kabi yangi ilmiy vazifalar paydo bo'lmoqda.

O'zbek adabiy an'anasida poeziya qadimdan jamiyatning ma'naviy-axloqiy tayanchi, estetik qadriyatlarni saqlovchi va yetkazuvchi badiiy makon sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Ana shunday boy madaniy muhitda Zulfiya ijodi o'ziga xos chuqur ruhiylik va yuksak estetik didni mujassam etgan noyob adabiy hodisa sifatida ajralib turadi. Shoirira lirik merosi kuchli hissiylik, janr rang-barangligi va yuqori ma'naviy-ma'rifiy ta'sir doirasiga ega. Zero, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga aslo bizning haqqimiz yo'q"¹. Shu ma'noda, Zulfiyaning adabiy muloqot rivojidagi hissasi va o'zbek lirikasining janriy imkoniyatlarini kengaytirishda tutgan o'рни tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruratini to'la belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17- fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-senabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini

¹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдевори. // Халқ сўзи. –Тошкент, 2017.

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 29-oktabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida lirik kechinma tabiati va obrazlar badiiyati bilan jiddiy shug'ullangan olimlar bisyor. Ilk yunon mutafakkiri Arastu bu borada o'zining "Poetika" asarida qimmatli mulohalarini bayon qilgan. Rus munaqqid-olimlari, esseist-faylasuflar A.A.Potebnya, D.N.Ovsyanko-Kulikovskiy, P.A.Sakulin, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinlarning psixoanalitik; V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Y.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, R.Bart, Y.Lotman, Y.Borev, A.Kovalev, Sh.Sent-Byov, G.G.Gadamer kabi olimlar olib borgan tadqiqotlarini keltirish mumkin².

Zulfiya she'riyati shu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun boy manba hisoblanadi. Garchi u haqida A.Olimjon, O.Ikromov, G'.Musina, M.Sultonova, L.Qayumov, N.Karimov, I.G'afurov, A.Akbarov, H.Hasanova, O.Sharafiddinov, H.Umurov, O.Hojiyeva, M.Ulug'ova, N.Jabborov, D.To'rayev, G.Umurova kabi olimlar va ijodkorlarning qator tadqiqotlari mavjudligi va bir nechta nomzodlik dissertatsiyalari fikrimizning yorqin dalilidir³. Mavjud tadqiqotlarning hech birida

² Потебня А. А. Эстетика и поэтика. – Москва: Искусство, 1976. – 616 с.; Овсянко-Куликовский Д.Н. «Литературно-критические работы», Москва: Художественная литература, 1989, т. 2, – 422 с.; Сакулин П.А. Филология и культурология. – Москва, 1990; Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6 т. Т. 3. — Москва: Педагогика, 1983. – 68 с.; Бахтин М.М. Эпос и роман: К типологии художественного слова // Вопросы литературы. – 1970. – №1. – С. 3-25; Шкловский В. Теория прозы. – Москва: Художественная литература, 1990. – 303 с; Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. — Москва: Гослитиздат, 1961. – 226 с.; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 404; Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. Москва, 1977. – 202 с.; Винокур Г.О. Критика поэтического текста. – Москва, 1927. – 134 с.; Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов// Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: Трактаты. Статьи Эссе. – Москва, 1987. – С. 407; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970. – 384 с.; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва, 1981; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Ленинград: ЛГУ, 1960. – С. 214.; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – Москва, 1970; Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – Москва, 1991.

³ Олимжон А. Шоира Зулфия. –Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1953.; Икромов О. Шоира Зулфия. –Тошкент: ЎЗДУ асарлари, янги серия №63, – Самарқанд, 1956.; Икромов О.Танланган асарлар. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.; Мусина Ф. Зулфиянинг ижодий йўли. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1971.; Султонова М. Шоира Зулфия. –Тошкент: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1965, Султонова М. Зулфиянинг лирикаси. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали, –Тошкент, 1961. – № 3. –Б. 14., Султонова М. Ижодкор лабораториясидан. // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. –Тошкент, 1985. – № 6. –Б.

shoira Zulfiya ijodi yangicha struktur-semantik tarzda o'rganilgan emas. Biz ishimizda badiiy xronotop va doston poetikasiga ham alohida to'xatilishimiz sababi ham shunda deb o'ylaymiz.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yangi o'zbek adabiyoti va adabiy tanqid" mavzusidagi (2022–2025) ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Zulfiya lirik merosida intertekstual xotiraning namoyon bo'lishini kompleks tarzda nazariy tahlil qilish, uning poetik mexanizmlarini ochib berish hamda madaniy, adabiy va ma'naviy-axloqiy ma'nolarning badiiy transformatsiyasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Zulfiya she'riyatidagi reminissensiya, allyuziya, madaniy-ramziy kodlar, sitatalik tuzilmalar singari intertekstual qatlamlarni aniqlash va tizimlashtirish, ular shoironing poetik yaxlitligi va badiiy tafakkurida qanday o'rin tutishini belgilash;

Shoironing mustaqillik davri adabiy jarayonidagi o'rini aniqlash, uning ijodining milliy va jahon adabiy an'analari bilan o'zaro aloqadorligini tadqiq etish, poetik merosdagi madaniy xotira uzluksizligi va transformatsiya xususiyatlarini aniqlash;

Zulfiya lirik subyekti fenomenini ayollar ijodiga xos alohida nutqiy-tipologik ko'rinish sifatida tahlil qilish, uning psixologik va dunyoqarash asoslarini, o'zini anglash va kommunikativ vazifalarini, poetik manzarani shakllantirishdagi rolini ochib berish;

Zulfiya adabiy-estetik tizimining shakllanishida sharq, rus, Yevropa va zamonaviy modernistik she'riyat an'analari ta'sirini aniqlash, intertekstual manbalarni badiiy o'zlashtirish va ijodiy dialog mexanizmlarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida shoira Zulfiyaning "Hijron kunlarida", "Kamalak", "Tong bilan shom aro", "Saylanma" she'riy, adabiy-badiiy to'plamlari hamda dostonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Zulfiyaning lirik asarlaridagi intertekstual xotira unsurlari, yashirin va ochiq adabiy parallel tuzilmalar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning badiiy talqini mexanizmlari, lirik nutqning o'ziga xosligi, hissiy-ma'noviy uyg'unlik poetikasi, badiiy vaqt-makon (xronotop) tizimi va an'ana

19.; Каюмов Л.Зулфия. –Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.; Каримов Н. Зулфия. Маърифий биографик асар. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.; Гафуров И. Зулфия сиймоси. // Шарқ юлдузи, 2015. –№1. 114-120 б.; Акбаров А. Зулфия. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975.; Ҳасанова Ҳ. Аёл қалбининг куйчиси. – Тошкент: Фан, 1975; Мактабда Зулфия ижодини ўрганиш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –Б. 70.; Шарафиддинов О. Сизни соғиндим, Зулфия опа! – Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. –Б. 367-374.; Умуров Ҳ. Қўш қанот сеҳри. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. Умуров Ҳ. Шеърят маликаси. – Тошкент: Наврўз, 2015.; Ҳожиева О. Тўрт танҳо. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013.; Улугова М. Муҳаббат саройида мангу қолганлар. – Тошкент: Nihol, 2010. Улугова М. Баҳор келди сени сўроқлаб. – Тошкент: Sharq, 2015.; Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.; Тўраев Д. Ҳаёт ва сюжет. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 124. Тўраев Д. Мумтоз ижод сабоқлари. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б.64. То'raev D. Sadakatin Habercisi. Turkiya. Kardes kalemler, 2016, –B. 89-92.; Умурова Г. Зулфия ижоди ва рус адабиёти (таржима, танқид, англаш). Фил.фан.номз.дисс. – Самарқанд, 2004.

hamda mualliflik innovatsiyasining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida individual poetik uslubning shakllanishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, strukturaviy, biografik, germeneytik va psixologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zulfiya ijodidagi intertekstual xotira ilk marta milliy va jahon adabiy an‘analari bilan muloqotda poetik va ruhiy birlikni shakllantiruvchi yaxlit tizim sifatida ilmiy asosda tadqiq qilingan;

intertekstual mexanizmlarning yashirin qatlamlari: reminissensiyalar, allyuziyalar, metamatn ishoralari, madaniy-ramziy kodlar aniqlanib, ularning muallif poetikasi va badiiy uslub genezisidagi o‘rni ilmiy asosda isbotlangan;

Zulfiya lirik subyekti evolyutsiyasi yoritilib, uning obrazi XX-XXI asr o‘zbek ayol lirikasining markaziy komponenti sifatida shakllanib, yangi ruhiy-estetik ifoda turini vujudga keltirgani ko‘rsatilgan;

Zulfiya obrazlar tizimining ijtimoiy, ma‘naviy va madaniy manbalari aniqlanib, “hijron” motivi uning poetikasida universal intertekstual kod hamda poetik meditatsiya shakli sifatida tahlil qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari asosida aniqlangan Zulfiyaning “Tong bilan shom aro”, “Hijron kunlarida”, “Kamalak” va boshqa to‘plamlaridagi she‘rlarda ijodkor shaxsning ruhiy shakllanishi, ayol taqdiri hamda davr muammolarining badiiy ifodasiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan biografik va ijodiy omillarning tavsifi zamonaviy adabiyotshunoslik aspektidagi o‘rganuvchilar uchun muhim manba bo‘la olishi asoslangan;

tadqiqotda shakllangan poetik tahlil natijalari Zulfiyaning badiiy mahorati, lirik “men”ning ruhiy o‘sishi, hijron fenomenining modifikatsiyasi, ayol qalbining falsafiy-psixologik talqini haqida ilgari surilgan xulosalar XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayon, istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi fanlarida yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yangi ilmiy manbalar bilan boyitishi dalillangan;

Zulfiya lirikasida davr, ayol shaxsiyati, ruhiy kechinmalar muammolarini aniqlash, uning badiiy-estetik tafakkurining evolyutsiyasini ochib beruvchi materiallar adabiyotshunoslikda yangi tadqiqotlar yaratishda, monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammalashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq tarzda qo‘yilganligi, ilmiy-nazariy fikr va ma’lumotlarning birlamchi manbalardan olinganligi, qiyosiy-tipologik, strukturaviy, biografik, germeneytik va psixologik tahlil usullaridan foydalanish natijasida aniq ilmiy xulosalar chiqarilganligi va ular vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tahlilga tortilgan adabiy-badiiy, ilmiy-nazariy manbalardan, izlanishning yakuniy xulosalari sifatida tavsiya etilgan materiallardan o‘zbek she‘riyatining taniqli shoirlari mahorati va adabiyot nazariyasi masalalari hamda o‘zbek adabiyotiga oid tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimidagi "Yangi o'zbek adabiyoti", "Jahon adabiyoti", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kabi fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda yordamchi material sifatida hamda yozuvchilar ijodi bo'yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. XX asr o'zbek she'riyatida Zulfiyaning tutgan o'rni va shakllanish jarayoni, davr yaratgan qahramon sifatida tadqiq qilish hamda uning o'zaro ta'sir doirasini aniqlash yo'sinlarini ishlab chiqish asosida:

Zulfiya ijodidagi intertekstual xotira ilk marta milliy va jahon adabiy an'analari bilan muloqotda poetik va ruhiy birlikni shakllantiruvchi yaxlit tizim sifatida ilmiy asosda tadqiq qilingan xulosalari "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-buyrug'iga muvofiq 218-355-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, ushbu qo'llanmaning yangi ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

intertekstual mexanizmlarning yashirin qatlamlari: reminissensiyalar, allyuziyalar, metamatn ishoralari, madaniy-ramziy kodlar aniqlanib, ularning muallif poetikasi va badiiy uslub genezisidagi o'rni ilmiy asosda isbotlangan xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida 2022-2024-yillarda AQSh Davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 3-martdagi 614/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning didaktik mazmuni badiiy psixologizm, muallif konsepsiyasi va uning nazmiy tafakkurdagi aksini yorituvchi g'oyalar bilan boyitilgan;

Zulfiya lirik subyekti evolyutsiyasi yoritilib, uning obrazi XX-XXI asr o'zbek ayol lirikasining markaziy komponenti sifatida shakllanib, yangi ruhiy-estetik ifoda turini vujudga keltirgani ko'rsatilgan ilmiy xulosalardan "Adabiy jarayon" teleko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 28-maydagi 05-09-755-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va dolzarbligi ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan;

Zulfiya obrazlar tizimining ijtimoiy, ma'naviy va madaniy manbalari aniqlanib, "hijron" motivi uning poetikasida universal intertekstual kod hamda poetik meditatsiya shakli sifatida tahlil qilingan xulosalaridan "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-buyrug'iga muvofiq 218-355-son nashr ruxsatnomasi). Natijada, ushbu qo'llanmaning yangi ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyalari. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Zulfiya lirikasida intermatn hodisasi va adabiy ta'sir muammosi”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. **“Shoira she'riyati va hozirgi adabiy jarayon”** deb nomlangan birinchi faslda Zulfiyaning ijodiy shakllanishi va davr ruhiyati bilan bog'liq chuqur psixologik qatlamlarni tahlil qilishga bag'ishlanadi. XX asrning 30–40-yillaridagi sobiq tuzum og'riqlari va sistematik qirg'inbarotlar har bir ijodkorning hovlisini bir aylanib o'tganligi rost. Bu “tozalash”lar davri deb atalsa to'g'riroq bo'ladi. Millatimizning asl farzandlarini “xalq dushmani”, “xalq xoini” degan nomaqbul tamg'alar bilan peshonasiga qurol tirab, o'linga sudrashini qaysi mezon bilan o'lchash mumkin? Zulfiya ham shu qismatning har bir qatrasini o'z ko'zi bilan ko'rgan o'spirin shoira sifatida o'sha davrda ulg'aydi, ta'bir joiz bo'lsa, kamolga yetdi. Taqdiriga “baxt va shodlik kuychisi” – Hamid Olimjonning bitilishi, bu uchrashuv va pok muhabbat sayli uzoqqa cho'zilmagani, turmush o'rtog'ining bevaqt vafot etishi uni hijron azobiga giriftor qilgani hech kimga sir emas!

Ijod laboratoriyasiga yaqindan kirib ko'rsangiz quyidagi mulohazalarga duch kelamiz: “Bilasiz, Hamid Olimjon 26 yoshida (1935-yil 23-iyul) sevgan qizi – Zulfiyaga uylanadi. Shu bahonada shoirning borlig'i – Komila ona Toshkentga ko'chib keladi. 1937-yilning 19-yanvarida bosh farzandi Hulkar dunyoga keladi. Shu yili A.Pushkin vafotining 100 yilligi yodlanadi, Moskvada o'zbek san'ati dekadasi bo'lib o'tadi... Bularning barchasiga u bosh-qosh bo'ladi, ilhomni qaynar buloqdek toshadi. Natijada “A'molsiz yashagan kishi g'aribdir!” degan haqiqatiga ishonasiz. Mahkam ushlangan maslaksiz, butun borlig'ingni egallagan dunyoqarashsiz, yuksak ideallarsiz bunchalar faollik yuzaga chiqmasligiga imon keltirasiz. Shunga qaramasdan, 1937-yil sentabrida “Hamid Olimjon millatchi shoirlarning “dumi” sifatida Yozuvchilar soyuzidan ham, Til va adabiyot institutidan ham haydaladi. Shoir uchun sinov kunlari boshlanadi” (Каримов Н. Хамид Олимжон. –Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1979, 123-bet)⁴. Haqiqatdan ham, mana shu qismat yosh oilaning boshga tushgani, g'am Zulfiyaning bag'ri-dilini bir tashvish o'laroq ezgani uning chinakam ijodkor

⁴ Умуров Х. Эҳтиёж тафти. –Тошкент: Ўзбекистон, 2011. –Б.22-23.

sifatida kamol topishiga turtki bo‘ladi. Ijod laboratoriyasida ayni shu qismat mavjud. Chunki Zulfiya ham o‘z muhabbatidan, suyanganidan erta ayrilgani ham, mavjud hayot tashvishlari yelkasini zil-zambilday bosishi ham shoirani ruhan, ma‘nan ulg‘ayishiga zamin bo‘ldi.

Zulfiya – XX asr o‘zbek ayol she‘riyatida birinchilardan bo‘lib “vafo va sadoqat” timsolini motiv sifatida olib kirgan shoiralardan sanaladi. Ayniqsa, Hamid Olimjon bilan tanishuvi, maktabdagi tahsil olishlar, she‘r texnikasini, yozish sirlarini o‘rganishi – bularning barchasi qismatida qaysidir ma‘noda o‘z ifodasini topganligini anglaymiz.

Ijodiy quvvat motirovkasi va biografik talqin teranligi. Dunyoda ijodkorlar biolaboratoriyasiga zimdan nazar tashlasangiz, insoniyat bosib o‘tgan yo‘lning quvvayi hofizasi, og‘riqlar-u yo‘qotishlarining nechog‘li iztirobli kechganligini ko‘ramiz. Zulfiya mustabid tuzum davrida ijod qildi. Ammo, lekin botinidagi dard, alam, o‘kinch hamda umidlar chechagi zinhor Vatandan tashqaridagi taqdimnoma (tavsiya)larga esh bo‘lmadi. Chunki u bilardiki, kommunizmning bir kuni qulab, kunpayakun bo‘lishini. Turli xil dashnomlar, ta‘nalar yog‘ilgan damlarida inson kimga va qanday suyanadi? Mana shu achchiq savollar Zulfiya o‘y-xayollarining tegrasida yashab kelganligini, uning she‘riy ibtidosini his qilasan kishi.

Hijron motivi va muhabbat manzumalarida ayol obrazi. Ayolning nozik tabiatini bilgan va unga tuganmas ilhom bergan Hamid Olimjonning visoliga bir umr tashna, sog‘inch bilan yuzlab she‘rlar yozgan Zulfiyani tushunish uchun uning kamida qalbiga yaqinlashish lozim. Chunki shoira she‘rlaridagi alohida bir mavzu “vafo va sadoqat timsoli”ning turli she‘riy shakllarda yuzaga chiqishida bilinadi. Uning har bir she‘rida (ayniqsa, muhabbat va o‘lim mavzusi aks etgan o‘rinlarda) hijron motivi alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu jihat she‘rdagi ruhiy-esetik va falsafiy ifodaning ko‘lamini yanada teranlashtiradi. Jamiyatdagi ruhiy bosimga qarshi tura olish uchun ham uning shiddatli hayotdagi yuksak iste‘dodi umrining 50 yilini ayriliq va azob-uqubatda o‘tkazganligini to‘laqonli dalolatlaydi.

Shoiraning shaxsiy taqdiri, davr fojialari, muhabbat va hijron sinovlari uning poetik tafakkurida badiiy-estetik sintezga aylanib, ayolning ruhiy olamini yangi badiiy bosqichga ko‘targani ilmiy asoslangan holda ko‘rsatildi.

Bobning “*Shoira she‘riyatida davr nafasi talqini*” deb nomlangan ikkinchi faslida ijodkorning o‘zi yashab turgan davriga monand qalb iztiroblari, orzu-umidlari, yashash uchun kurashlari, muayyan vaqt oralig‘ida sinovlarda toblangan metin irodasining badiiy ini‘kosi bo‘ladi. Shoira Zulfiya ham ana shunday ichki iztiroblar qurshovida yashagan, hayot haqiqatini badiiy g‘oya – lirik kechinmaga aylantirgan manzumalari borki, busiz shoirani to‘laqonli kashf etish oson deb bo‘lmaydi. Chunki Hamid Olimjon bilan yashagan davrni alohida bir hayot sarchashmasining badiiy ini‘kosi deb bilsak, ana shundan keyingi “hijron va ayriliq” motivining yanada chuqurlashuvini ikkinchi bir davr nafasi sifatida qadrlaymiz. XX asrning 40-yillarida badiiy adabiyotda urush va urush yillarini qayta idroklash tamoyili yuz bera boshladi. Hamid Olimjondek hassos shoirning bunga adabiy ta‘siri, yozish instinkti, davrning qandayligini his qildirish manerasining tobora kuchaytirilishi Zulfiyani ham ruhan va jisman kurashchanlik ruhida ulg‘ayishiga olib keldi. Hali qirq yoshning ostonasiga qadam qo‘yayotgan

Hamid Olimjonning Zulfiya lirikasiga hayotiy-badiiy nafas olib kirishi bu ayni haqiqatdir.

Olim N.Karimov qayd etishicha: “Ijodiy jarayon antiqa xususiyatlarga ega. Ba’zan shoirda mavzu ham, tuyg’u ham, kayfiyat ham bo’ladi. Lekin she’r tug’ilmaydi. Qog’ozga tushgan ikki misradan keyin ijodiy kayfiyat, kutilmaganda, so’nadi. Bir-ikki tomchi tashlab, yomg’irga aylanmagan bulutdek yo’qoladi-qoladi. Shunday lahzalarda Hamid Olimjon stolidagi oq qog’oz uning imzosi bilan to’lardi. U ba’zan oq qog’ozga boshqa biror so’zni ketma-ket yozib chiqardi. 1936-yilda Qora dengiz bo’ylaridan Zulfiyaga yuborgan xatlaridan birida Hamid Olimjon ikki misragina she’r yozgan, sahifaning qolgan qismini esa uning ismi bilan to’ldirgan edi. Biroq bunday, ijod yurishmagan damlar uning hayotida oz bo’lar, u, odatda, hoshiyasiga ham, kalendar varag’iga ham yozib ketaverar edi. Zulfiya esa ko’pincha Hamid Olimjon safarda ekanida ijod qilardi. Uning o’sha davrdagi aksar she’rlari ana shunday tug’ilgan. Shuning uchun ham Hamid Olimjon qayerdan kelmasin, Zulfiya uni yangi she’r bilan kutib olar edi”⁵.

Har qanday davr o’z qahramonlarini yaratadi. Bu qahramonlar taqdiri ham o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi. Idrok qilinayotgan har qanday obrazning mohiyatida “hijron”, “ayriliq”, “g’ussa” va “armon” bo’lsa, demak, uning nurli kelajagi borligiga shubha qilmasa ham bo’ladi. Negaki, XX asr boshlarida istiqloq uchun tom ma’nodagi kurash, har qanday biologik energiya bilan psixologik kechinmlarni bir-biriga bog’lab qo’ydi. Cho’lpon, Fitrat, Oybek va G’afur G’ulom, Hamid Olimjon, Usmon Nosir izlanishlarida, diqqat qilinsa, ichki bir iztirobning psixoanalitik talqiniga ro’baro’ kelamiz. Bu she’riyat o’zidan oldingi va keyingi davr uchun juda katta bir material o’laroq, yo’nalish, ozodlik va inson konsepsiyasining o’lmas muhabbatini meros qilib ketdi. Badiiy ijodda inson ruhiyati ikki xil yo’sinda talqin qilinadi:

1. Davrning mahsuldorligi;

1. Haqiqiy ijodkor ideali.

Haqiqiy ijodkorning mana shu polifonik dunyoqarashida DAVRning og’riqlari bo’rtib ko’rinishi tabiiydir. Davr esa hamma zamonlarda milliy-ijtimoiy ruhiyat bilan ham bog’liq holda taraqqiyot lahzalarini boshidan kechirishi mumkin. Zulfiyaning tom ma’nodagi ijtimoiy-ijodiy kayfiyati G.Umurova ta’biri bilan aytganda: “Zulfiyaning 1932-yilda nashr etilgan “Hayot varaqlari” nomli ilk kitobi 19 ta she’rdan iborat bo’lib, bor-yo’g’i 26 sahifani tashkil etar edi. Lekin bu she’rlarning barchasi yoshlik sururi, halol mehnat, kelajakka doimo umid bilan qarash kayfiyatlari bilan sug’orilgan edi. She’riyat olamidagi ilk qadamlarining ustozlar va she’riyat ixlosmandlari tomonidan iliq kutib olinishi yosh shoiraga katta dalda bo’ldi. Biroq Zulfiya maqtovlardan taltayib ketmadi, gangib qolmadi. Umuman, shoira yoshlik yillaridanoq o’z ijodiga talabchanlik bilan, kerak bo’lsa, tanqidiy yondashishga odatlangan edi”⁶. Binobarin, manbadan anglashiladiki, Zulfiyaning “Hayot varaqlari” she’riy to’plamidan “Xotiram siniqlari” dostonigacha shoira ijodiy mehnatning ancha azob-u uqubatlarini, hayot

⁵ Каримов Н. Хамид Олимжон. –Тошкент: Ёш гвардия, 1979. –Б.217.

⁶ Умурова Г. Зулфия бадий олами ва поэтик мактаби. Филология фанлари доктори дисс. –Самарканд. 2019. –Б.13.

zarbalarini, insoniy kechinmalarni boshidan o'tkazdi. Mana shu jihat Zulfiya ijodiy quvvatini oshirdi, unga yangidan-yangi mavzular ko'lamini taqdim qildi. Shunday ekan, hayotning murakkab tomonlarida bo'lishlik, Zulfiya avlodining xuddi tig' ustida yurishdek doimo uqubatda kechishi mumkinligini his etamiz. Biroq shoira lirikasidagi – ko'ngil va hijron motivining yanada davrlashgan manzarasiga to'g'ri keladi.

Bobning *“Yolg'izlik motivi va uning she'rdagi poetik ifodasi”* deb nomlangan uchinchi faslida she'r obrazlilik va lirik qahramon orasida uyg'un holda yashab keladigan ruhiy-falsafiy-estetik jarayon ekanligi talqin qilindi. Albatta, lirika yordamida ko'ngil poklanadi, hissiyot sayqallanadi, go'zallik va ezgulik qadrlanadi. Bunday maqomga erishish uchun shoira Zulfiya ijodi bilan yaqindan tanishish lozim:

Tog' ortidan ko'tarildi oy,
So'lim qirg'oq nur-la o'pishdi.
Ko'zgu bo'ldi jim-jit oqqan soy,
Oyning aksi suvlarni quchdi.

Soymi yoki shabboda oldi,
Mening ko'zimdagi uyquni?
Oy yorimni yodimga soldi,
Dilda toshdi sevgi to'ldini⁷.

Bunday o'xshatish – Zulfiya ijodida turlicha shaklda jaranglaydi. Ayniqsa, inson ruhiyati va psixologik kayfiyati bilan bog'liq jarangdor o'xshatishlar yorning visolga tashna vujudidagi haroratni biroz bosgandek taassurot qoldiradi. Insonning maishiy turmushidan emas, uning kelajakka bo'lgan ishonchidan dalolat beradi. Zulfiya ana shu tamoyilga qattiq amal qilgan ijodkor sifatida dunyo adabiyoti xazinasidan o'rin egallay oldi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Obrazlilikni yuzaga keltirgan mavjud voqelik kechinma va ruhiyat uyg'unligini taqozo etadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Shoira she'riyatida reminissensiya va poetik dialog”** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli *“Shoira dostonlarida falsafiy-estetik konsept va mahorat uyg'unligi”* deya ataladi. Doston badiiyati borasida ikki xil tushuncha mavjud. Birinchisi, doston deganda xalq og'zaki ijodidagi sinov motivlariga yo'g'rilgan qahramonlik eposi ko'z o'ngimizda gavdalansa, ikkinchisi, ulug' Navoiy yaratgan dostonlar tushuniladi. Biroq har ikki holatda ham, mavjudlik, hayotning teranliklariga kirib borish, insonlardagi g'oyalar va manfaatlar to'qnashuvini dalolatlash turadi. Bu kabi masalalar doston janrini yanada keng miqyosda ifodalashga yo'l tutadi. Hazrat Navoiy an'analari epik ko'lam shu qadar teranlik kasb etadiki, uning umuminsoniyligi ham shu vaqt oralig'ida kechgan voqelik in'ikosi bilan o'lchanadi. Adabiyotshunoslik lug'atida dostonga quyidagicha 3 ta tavsifiy yo'sinda ta'rif beriladi: “1) turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi epik janr. Xalq og'zaki ijodidagi dostonlar; 2) mumtoz adabiyotimizdagi yirik hajmli, odatda, masnaviy shaklda aruzning ma'lum bir vaznida yoziluvchi she'riy asar; 3) zamonaviy adabiyotda keng tarqalgan yirik hajmli she'riy asar, unga sinonim tarzida poema atamasi ham qo'llaniladi. Hozirgi

⁷ Зулфия. Ҳижрон кунларида. –Тошкент, 1944. –Б.25.

adabiyotda dostonlar bitta umumiy nom bilan atalsa-da, janr xususiyatariga ko'ra ular turlichadir. Shuning uchun amaliyotda lirik doston, epik doston, dramatik doston kabi aniqlashtiruvchi atamalar qo'llaniladi. Adabiyotshunoslikda doston (poema)larning hammasini liro-epik janr hisoblash hollari ham borki, yuqoridagilardan kelib chiqilsa, bu unchalik to'g'ri emas..."⁸. Haqiqatdan ham, "voqelik lirik qahramon munosabati orqali ifodalash" holati negizida janrning tashkillantirish strukturasi negizida farqlanishni chamalash mumkin. Demak, dostonlarning janriy-kompozitsion qurilishi muallifning nuqtayi nazaridan, voqelikni ochib berish tomonidan, shuningdek, obrazlar silsilasidagi zalvor, maqsadi, g'oyaviy konseptual o'sish-o'zgarishlardan farqlash ham mumkinligi ayon bo'lmoqda. Shoirira Zulfiya zamondosh adib-u shoirlar singari lirik doston yaratish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Mana shu jihat har bir muallifning dunyoqarashi, masalaning qay tariqa namoyon etilish strukturasi real mohiyat kasb etadi.

Dostonda chorlov motivi. Badiiy asarda muallifning – lirik qahramoni tashqi va ichki kechinmalar (botiniy) negizida o'z-o'zi bilan muloqotga ham kirishadi. Ayniqsa, dostonning yozilish jarayonida olingan hislar, kechinmalar, tuyg'ular, vulqondek toshib, chayqalib, odamni qandaydir favqulodda o'ziga xos manzillar-u makonga eltuvchi usul bo'ladiki, o'quvchi ana shu mohiyatga qarab yo'lga chiqadi. Shoiraning botinidagi go'zallik bilan to'qnashadi. Bu ziddiyat – samimiy va xokisor ifodalansa, ana shu mezonni teran anglashga yetaklaydi. Zulfiya dostonlarida mana shu tamoyil qabarib ko'ringan. Biror-bir muhim gap aytish lozim bo'lsa, uning tegrasida olam va odam muammolari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zulfiya ana shu mezondan turib ijod qilishini unutmaslik lozim. Dunyoni boricha ko'rish, uning dard-u mashaqqatlari bilan yaxlit kashf etish modusi Zulfiya ijodida alohida konseptlarning yuzaga chiqishiga zamin hozirlaydi. U qahramonlari bilan diqqat qilganicha uzundan-uzun suhbatlashadi. Bu suhbatlar tegrasida o'z qalbida kechayotgan dolg'ali to'lqinlarni his etish o'quvchini ham zavq, ham shavq, ham hayot haqiqatini anglashga olib keladi. Buni boshqa bir mezon bilan baholash mumkin emas. Zulfiya adabiyotning ichida bir umr yashadi. Uning yozganlarida hayotning puchmoqlarigacha kirib borish, millat va uning yorqin kelajagiga ishonib yashash instinkti qabarib ko'rinadi. Dostonlarida erkin, samimiy, kulib turgan bir odamning favqulodda ta'sirli hayoti qabarib ko'rinadi. Mezonlar, konseptlar va o'lchovlarning tadrijiy takomili ana shu tamoyilni tartiblashtiradi:

Go'zal tuproq uzra quyiladi oqshom,
Kunduz olar dam,
Jo'shqin mushoira etadi davom,
Do'stim, kel sen ham!
Bunda uzoqdagi do'st bo'lar yaqin,
San'at, mahoratning bayrami bunda.
Qofiya, so'z, misra bahslari qizg'in,
Yuraklar davraga kiradi bunda.

⁸ Курунов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.92-93.

Qay dil chamani boy, jozib nafasi,
Kimning fikri o'tkir, teran, bokira?
Bu gurung – shoirlar musobaqasi –
Sharq she'riy chamani, bu mushoira.

Hind tuprog'i uzra quyilib oqshom,
Kunduz olgach dam,
Jo'shqin mushoira etadi davom,
Do'stlar bo'lib jam⁹.

Ayonki, shoira Zulfiya Hindistonda o'tkazilgan xalqlar do'stligi konferensiyasidan ta'sirlanib, 1958-yil "Mushoira" nomli dostonini yaratadi. Bu dostonda shoiraning lirik qahramoni o'zidir. U turli qit'alardan, vatanlardan, ellardan tashrif buyurgan odamlarga, ijodkorlarga, shoirlar-u yozuvchilarga **chorlov motivini** ilgari surmoqda. Ayni damda, bu chorlovning mohiyatida hayotning rangin lahzalari, odamlarning orzu-umidlari, ikkinchi jahon urushidan keyingi sokin kunlar o'z ifodasini topgan. Stalin vafotidan keyin boshlangan, har bir odamning erkinlikka va o'z so'zini mustaqil ayta olishga berilgan "ozgina" imkoniyat ijodkorlarni ham to'lqinlantirib yuborishi tayin. Biroq mafkuraning, zulmning yaralari hali bitmagan, sobiq ittifoq regionida yashovchi turli millatlar, elatlarning xatti-harakatlari o'zaro do'stona bo'lishini istashlik turibdi bu asar komozitsiyasida. Dostonning muqaddimasida keltirilgan: **"Go'zal tuproq uzra quyiladi oqshom // Kunduz olar dam, // Jo'shqin mushoira etadi davom, // Do'stim, kel sen ham!"** deya murojaat chorlov va chaqiriq motivida barcha she'riyat, adabiyot ixlosmandlarining o'ziga xos ichki botiniy hissiyot bilan tashrif buyurganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, hayotning achchiq zarbalari, insonning ma'naviy kamolotiga olib boruvchi hislar, to'lg'onishlar, kechinmalar fonida dostonning o'ziga xos tasvir konsepsiyasini anglab yetishimiz mumkin. Dunyoning lahza sayin o'zgarib turishi odamlarning o'zaro munosabatlarida, ishonch va hurmatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Dostonning kuchli hayajon va dramatik sarzanishlar negizida ifoda etilishi har qanday odamni tushkunlikdan yorug'likka tomon olib chiquvchi bir mayoq kabi ta'sir qila boshlaydi.

Bobning ikkinchi fasli **"Lirik qahramon kechinmalari va tabiat tasviri"** deya ataladi. Inson o'zi tashna va o'zi bilgan narsalariga ichki bir qiziqish, xohish bilan umr kechiradi. Agar bu kayfiyat ijodkor botinida nish ura boshlasa – u so'roq, yolvorish, xohish motiviga evriladi. Ayni paytda, insonning ijtimoiy yashash sharoitidan kelib chiqqan holda tabiat tasviri bilan o'zaro uyg'unlashib ketadi. Bu so'rash, yolvorish, nidolarning barchasida – ayriliq va qo'msash turadi. Qo'msagan insonining kelishini oshiq qanchalik intizor kutsa, tabiat ham shunchalar intiq va ilhaq, diydoriga zor bo'la boshlaydi. Shoira ana shu tuyg'ularini qog'ozga tushirar ekan, har bir kechinma bag'riga umuminsoniy tuyg'ular semasini yagona estetik markazda uyushtira olish manerasi bilan birga yashay boshlaydi. Zulfiyaning aksariyat she'rlarida Hamid Olimjondan ko'chib o'tgan – iltijo, sog'inish, istak motivlarining tabiat tasviriga ko'chib o'tgan o'ziga xos transmission kayfiyatning

⁹ Зулфия. Тонг билан шом аро. –Тошкент: Шарқ, 2015. –Б.135.

huzurbaxsh semalarini kashf etamiz. Negaki, ijodkor tashqi va ichki omillar silsilasida o'z mahubasini ko'z o'ngida gavdalantirar ekan, unga har bir o'tayotgan lahzalarning og'ir kechishi borasida hisobot berayotgandek. Hamid Olimjonning ruhi oldida o'zini qandaydir aybdor, ruh qarab turgandek, farzandlari, oilasi oldidagi kelinlik burchi, balki onalik zahmatlarining zalvori nechog'li og'irligini bot-bot tushuntirmoqchi bo'layotgandek tuyuladi. Aslida ham shunday! She'ning o'ziga xos moduslaridan biri – lirik qahramonning qanday kayfiyatda, nima maqsadda, niyatda olam va odamga hissiy murojaatining zarrin tovlanishlarini yurak-yurakdan his qilish mumkin:

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida qirlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag'rim bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi,
Ko'zlaringga surtib, o'parding uni¹⁰.

E'tibor berilsa, she'ning ekspozitsiyasida – bahorning kelishini hamda uning o'ziga xos kayfiyatini obrazlantiradi. Mana shu lirik kechinma tabiatida inson va tabiat murosaga keladi. Bahorning kelishida ajib hikmatni tuysa-da, Hamid Olimjonsiz o'tayotgan bahorning juda iztirobli kechishini bot-bot mantiqiy urg'ulaydi. Qancha bahorni sevgan shoir endi yonida yo'q. U tilsiz tabiat bilan hissiy-shuuriy tillashar ekan, baxmal vodiylarning, qirlarning ko'rki bo'lgan bahordan juda katta bir falsafa topadi. Bu falsafaning negizida hayotga tashnalik, og'riqlarning umuminsoniy qiyofasi, iztiroblarning munosib egasi Allohning diydoriga mushtoqlik sezishi ham qabarib ko'rinadi. Bahor – Zulfiya she'rlarida o'zgacha tusda jilvalanadi. Har kelgan bahor Hamid Olimjonning oppoq ruhi oldida o'lmas bir she'riyatning ajib tovlanishlaridan dalolat beradi. Chunonchi, Zulfiya ushbu “Bahor keldi seni so'roqlab” she'rida lirik qahramon o'zi va Hamid Olimjondir. Bu yerda ikki ayrilgan qalbning ruhan yaqinligiga vositachi bo'lgan – tabiatdir xolos! Mana shu tabiat qo'ynida ijod qilish, uni qo'msash hamda har bir o'tayotgan kuniga shukronalik tuyg'usini keltirish hayot haqiqatini juda murakkab semalarda talqin qilishga yo'l ochadi. Zulfiya ushbu she'rida romanga xos, qissa yoki dostonga xos syujetni katta falsafiy teranlikda yuzaga chiqara olgan.

Bobning uchinchi fasli “*Shoira she'rlarida lirik qahramon uyg'unligi*” deb ataladi. She'r obrazlilik va lirik qahramon orasida uyg'un holda yashab keladigan ruhiy-falsafiy-estetik jarayondir. Har qanday ijodkor mangu bir iztirob qarshisida so'z aytgisi keladi. Shuning barobarida insonning o'tmishi, tarixi, shajarasi, boringki, kelajagiga daxldor tushunchalar fragmenti namoyon bo'ladi. Jumladan, “hayot va insondagi o'zgarish va kechinmalar shoir qalbida sintezlashadi. Ijodkor har bir voqelik, hayot haqiqatiga o'z badiiy g'oyasi ko'zi bilan qarab, yondashib,

¹⁰ Зулфия. Йиллар садоси. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. –Б.30.

undan ma'ni, ramz topib o'z dunyoqarashini va estetik ideali, kuchi, aqliy va hissiy qobiliyati, aniq maqsadi bilan go'zal obrazlar yaratadi. Chunki obraz badiiylikning gultoji bo'lib, fikr, g'oya ifodalash, o'zgalarga hissiy ta'sir etish, fikrlatish, hamdard tuyg'ular, qarashlar uyg'otishning eng zarur va zarif usuli yo'li. Ijodkorning betakrorligi ham u yaratgan, topa olgan obrazlar qamrovi, hayotiyliigi, ta'sirchan, samimiy va haqqoniyliigi, estetik munosabatidadir. Obrazliliksiz badiiy asar bo'lishi mumkin emas"¹¹.

Shoira ijodini kuzatar ekansiz, bitta muhim jihat kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladi. U ham bo'lsa falsafiy-intellektuallikdir. Bu muhim qirraning shoira ijodidagi rang-barang ko'rinishlari lirik va epik asarlarida go'zal mohiyatni yuzaga keltirgan. Olislarga qadalgan nigoh, kutish va sabr onlari, muhabbatdan yaralangan dil nolalari, hijrondan yaralgan mungli ohanglar, taqdir hukmining javobsiz sadolari, orzularning kamalak jilosi, shodlikning munavvar tongdek sezimlari kishi qalbining bitmas, tuganmas idroki shoira Zulfiya lirikasining har bir nuqtasida estetik qarashlarini yaqqol ifodalab turibdi. Ko'pgina hollarda o'sha tanish tuyg'ular kitobxon qalbidagi tizginsiz savol yanglig' yuzaga chiqishiga guvoh bo'lasiz. Davrlar ham xuddi odamdek turfa va ko'p-qirralidir. Unda mavjudlik jumbog'iga yechim topish mumkin. Lekin har bir buyuk savol bag'rida shunga monand javob ham qoim.

Adabiy asarning mohiyatida – obrazlilik mavjud. U maromiga yetkazilib chizilmas ekan, badiiy ijod ekspressivlik va emotsionallik kasb etmaydi. Asosan, adabiyot metaforalarga boy, teran mushohadaga chorlovchi badiy-tasviriy vositalar yetarlicha qo'llanilgan bo'lsa, poetik qiymati ham shunchalik rang-barang, betakror bo'ladi. Odatda, lirik asarning muhim shartlaridan bir – obrazlilik sanaladi. Darvoqe, "har qanday obraz hayotiyliigi, joziba-ta'sirini ta'minlash uchun aniq bir makon va zamon bo'lishi mumkin. Har bir obrazda shoirning voqelik, hodisaga shaxsiy munosabati bor. Unda shoir dunyoqarashi, ideali, estetik olami mujassamlashgan"¹². Haqiqatan ham, shoira Zulfiya poetikasida – fasllarga ajralgan qalbning ruhiy kechinmalari aks ettirilgan. Masalan, quyidagi to'rt qator she'rni kuzatamiz va bunga guvoh bulamiz:

Gavhar marjon kabi yaltirab tursa,
Meni ham o'raydi she'riy hayajon!
Quyoshni qarshilab chiqib ayvonga,
Nurlarga ko'milib yuraman shodon"¹³.

She'rning mohiyatiga jiddiy e'tibor berilsa, kuz poetik obraz darajasiga ko'tarilgan mazkur parchada lirik qahramonning kayfiyati shodlik va xuramligni akslantirmoqda. Hissiy bo'yoqdorlik qabarib ko'ringan ushbu she'r mohiyatida lirik obraz – kuz tiynati mushohada sahniga olib chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Zulfiya ijodida obrazli qatlam, metatekst va parallel motivlar poetikasi**" deb nomlanadi. Uning birinchi fasli "*Doston badiiyati va uning matn tahlili*" deya ataldi. Shoira Zulfiya umrining oxirgi yillarida "**Xotiram siniqlari**" nomli doston yozishga kirishdi. Bu dostonning

¹¹ Ганиев И. Афокова Н., Ганиева А. Шавкат Рахмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б. 17-18.

¹² Ганиев И ва бошқ. Шавкат Рахмон олами. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б. 40.

¹³ Зулфия. Йиллар садоси. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995. –Б. 91.

yozilishi esa quyidagi xotiralarida tilga olinadi. “Ertalab ishga ketayotib, Chimkent ko‘chasidagi uylariga kirdim. Ustoz horg‘in, lekin juda baxtiyor edilar. Kecha o‘qigan dostonga bir necha bandlar qo‘shilgan edi. Jumladan, birinchi o‘qiganimizda mana bu bandlar yo‘q edi. Bu betakror satrlar bugungi saharining – istiqlol saharining bergan imkoni tufayli dunyoga kelgan edi... Yana so‘zlarini davom etib bu fikrlarini bayon qildi: Saksonga ham kirib qoldik, istiqlol bergan ne‘matlarni chuqur o‘ylab, umrim bo‘yi meni qiynab kelayotgan bir katta muammo bor, o‘shani qog‘ozga she‘riy shaklda tushurdim. Buni yozmasam bo‘lmasdi. Mustabid tuzum iskanjasida ezilgan, butun vujudimiz, ruhimizni qo‘rquvda ushlab kelgan tuzumning asl basharasini men istiqlol tufayli ochib berishim kerak. Ko‘pgina she‘rlarimda hijron va ayriliq, do‘stlik va qurilish mavzularini kuylaganman. Lekin bu mavzu meni mustabid tuzumga qarshi yashaganim o‘laroq botinimda bir alam va iztirobni sira ketkazgan emas! Akamning, amakilarimning, millatimiz oydinlarining bevaqt, yaproqdek charsillab uzilishi-yu, Sibirga surgun etilishi, hayot haqiqatini yozgani uchun otib tashlanishi meni doim bezovta qilib kelgan. Ularning pok ruhlari oldida, vijdonim oldida javob berish hammamizning botinimizda yetmish yildirki yashab keldi. Istiqlol sharofati bilan ana shu iztiroblarimni yozib ko‘rdim. Bir o‘qib beray...” dedi¹⁴. Ko‘rinadiki, dostonning yozilish jarayonining o‘ziyoq shoira qalbidagi fig‘on chechaklarining hali so‘lmaganidan, umrining iqrornomasidan dalolat beradi:

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding,
Pinhona sog‘indim, pinhona kuydim.
Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek –
Sening nasimingga qalbimni tutdim.

Mana, qalb – baxt-u dard to‘la dengizim,
Mavjlari shuhratim, hijron, o‘kinchim.
Qo‘rquv kalxatlari tegib sindirgan –
Yodim siniqlari ostda – cho‘kindi.

...Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray,
Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh,
Qaragin titroqda – hammasi jonli,
Qara, hammasining yuzi qontalash...¹⁵

Xotira – inson umrining sarhisobi. O‘tmishga, orqaga bir o‘girilib, xalqimizning boshiga tushgan azob-u uqubatlar, mislsiz qiynoqlar iskanjasida millat tafakkuri, vujudining yo‘q qilinishi har qanday ijodkorning qalbida nish urgan ASL haqiqatni anglashga imkon beradi. Ayniqsa, 1938-yilgi qatliomning millat gul-u lolalarini yo‘q qilishga kirishilishi natijasida tarix zarvaraqlarida o‘chmas qizil ip bo‘lib o‘tishi fikrimiz yorqin dalili emasmi? Cho‘lpon, Fitrat, Qodiriy kabi zabardast adiblar qatorida shoira Zulfiya Isroilovanning akasi Normat Isroilovning maxfiy otib tashlanishining o‘ziyoq dahshatli so‘roqlarni keltirib chiqaradi. Bu haqda matnshunos va manbashunos U.Bekmuhammad shunday

¹⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xotiram-siniqlari-zulfiya.html>

¹⁵ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/xotiram-siniqlari-zulfiya.html>

